

O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY OBIDALARNING TURIZM SOHASIDAGI AHAMIYATI

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va sn'at fakulteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Valiyeva Zuhraxon Numonjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va sn'at fakulteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Isomidinova Umidaxon Baxridin qizi

Annotatsiya: Maqolamning mazmuni qadimiy me'moriy obidalarning yurtimiz turizmida tutgan ahamiyati, turistik zonalar, O'zbekistonda turizmning rivojlanishi, eng ko'p boriladigan turistik shaharlarni yoritishdan iborat. Yurtimizda turizmga oid ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar ushbu maqolada keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: turizm, O'zbekiston, tarixiy obidalar, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Xorazm.

Аннотация: Содержание статьи заключается в освещении значения древних архитектурных памятников в туризме нашей страны, туристических зон, развития туризма в Узбекистане, наиболее посещаемых туристических городов. Информация о показателях туризма в нашей стране представлена в данной статье.

Ключевые слова: туризм, Узбекистан, исторические памятники, Самарканд, Бухара, Навои, Хорезм.

Annotation: The content of the article is to highlight the importance of ancient architectural monuments in the tourism of our country, tourist zones, the development of tourism in Uzbekistan, and the most visited tourist cities. Information about tourism indicators in our country is presented in this article.

Key words: tourism, Uzbekistan, historical monuments, Samarkand, Bukhara, Navoi, Khorezm.

KIRISH

Qadimiy me'moriy obidalarni ziyorat qilish bugungi kunda jadallashib bormoqda. Nafaqat hamyurtlarimiz, balki butun dunyodan sayyohlar yurtimizning qadimgi me'moriy obidalariga katta qiziqish bilan tashrif buyurmoqdalar. Har yili Germaniya, Fransiya, Avstriya, Shvetsariya, Amerika, Angliya, Italiya va boshqa ko'plab davlatlardan turistlar Samarqand, Buxoro, Navoiy, Xorazm, Surxondaryo kabi shaharlarda sayohat qiladilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bir vaqtlar Buyuk Ipak yo'lining bir qismi bo'lgan mamlakatimizning gullab yashnagan shaharlari ming yildan oshadi. Bunday tarixiy gigantlar tirik afsonalar bo'lib, zamonaviy dunyoda sayohatlarini davom ettirishlari xayolga ham sig'maydi. Bu yerda siz ularning ayancli tarixi, noyob go'zallikning me'moriy yodgorliklari, milliy taomlari, har bir shaharning sirli joylari haqida bilib olasiz. Bundan tashqari, siz virtual sayohatlarga borishingiz, suvenirlar va sovg'alarni onlayn xarid qilishingiz, mumkin. Samarqandning madaniy merosi juda katta. Asrlar davomida bu shahar Buyuk Ipak yo'lining asosiy markazi bo'lib kelgan. XXI asr boshlarida shahar YuNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga "Samarqand - madaniyatlar chorrahasi" nomi bilan kiritildi! XV asr o'rtalarida Saaarqandda Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek (1409-1449) hokimiyat tepasiga keldi, u nafaqat Temuriylar sulolasining vakili, balki yirik olim va astronom sifatida ham dunyoga tanildi. Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va G'ijduvonda o'quv muassasalarini faol qurishga aynan Ulug'bek bosh bo'lgan. Samarqand shahridagi Ulug'bek madrasasi sharqning islom oliy o'quv yurtlarining mumtoz namunasi. Musulmon olamining taniqli muhaddislaridan biri Imom al-Buxoriy 810 yil 21-iyulda Buxoroda tavallud topgan, 870 yilda Samarqadadan 25 km uzoqda joylashgan Xartang qishlog'ida (Samarqand viloyatining hozirgi Chelak tumani) vafot etgan va o sha yerda dafn etilgan. Biroq, bu joy asrlar davomida qarovsiz holatda qolgan edi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan

so'ng, majmua qayta tiklandi. 1997- yilning 29-apelida o'zbekiston Respublikasi hukumatining "Imom al-Buxoriy tug'ilgan kunining hijriy-oy taqvimini bo'yicha 1225 yilligini nishonlash" to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Shu yilning noyabr oyida, YuNESKO ning bosh konferensiyasi 1998-yilda muhim sana-olim Ismoil al -Buxoriy tavalludining 1225 yilligining nishonlanishida qatnashish to'g'risida qaror qabul qiladi. Shu munosabat bilan, Imom al-Buxoriyning maqbarasida O'rta Osiyonong me'moriy an'alariga ko'ra bajarilgan yodgorlik majmuasi barpo etilgan edi. Yodgorlik uchun ajratilgan yerning umumiy maydoni 10 gektarni tashkil etadi. Majmua, Samarqand-Imom al Buxoriy avtotrassasiga tutashib ketadi.

Muqaddas Buxoro O'zbekistonning sayyohlik durdonalaridan biridir. Tarixiy shahar markazi YUNESKO ning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shaharning yoshi 2500 yildan oshgan. Eng yaxshi diqqatga sazovor joylar Qadimiy sharqona ertakning muhitiga tushib qolishni istasangiz, Buxoroning eng diqqatga sazovor joylarini ziyorat qiling:

- ✓ Poi-Kalon me'moriy yodgorlik, (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tomonida Poi-Kalon me'moriy yodgorlik, (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tomonidan "sakkizinchi mo"jiza" sifatida tan olingan);
- ✓ Ark qal'asi;
- ✓ Somoniylar maqbarasi;
- ✓ Chashmai Ayub maqbarasi;
- ✓ Magaki-Attari masjidi.
- ✓ Mirzo Ulug'bek madrasasi,
- ✓ Miri-Arab madrasasi,
- ✓ Lyabi-Xauz ansambli va boshqalar. Xiva - Turk dunyosining poytaxti.

Xiva - qadimiy devorlar, minoralar va loydan qurilgan betakror binolar shahri. Islom hamkorlik tashkilotining (IHT) Bokuda bo'lib o'tgan XI sessiyasi doirasida Xiva 2024-yilda islom olamining turistik poytaxti deb e'lon qilindi!

Eng yaxshi diqqatga sazovor joylar. Qadimgi Xiva YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Va shunga ko'ra, barcha diqqatga sazovor joylar dunyo tashkilotining himoyasi ostiga olingan.

Xivada nimani ko'rishingiz mumkin:

- ✓ Asosiy qal'a - Ichan-Qal'a, Kunya-Ark qal'asi, Dishan-Qal'a;
- ✓ Xivada yuzdan ortiq qadimiy minoralar, maqbaralar, masjid va madrasalar mavjud;
- ✓ Xiva hukmdorlarining saroylari va turar joylari;
- ✓ Qadimiy karvonsaroylar va hammomlar;
- ✓ Davlat qo'g'irchoq teatri va Avesto muzeyi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yurtimizdagi qadimiy me'moriy obidalar faqatgina turizm uchun mo'ljallangan bo'lib qolmay, ular yurtimizning eng boy madaniy merosi hisoblanadi. O'zbekiston tarixi, madaniyati, xalqining tarixi mujassam bo'lgan ushbu qadamjolar bugungi O'zbekistonning madaniy va ma'naviy o'tmishidan hikoya qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://uzbekistan.travel>
2. <https://uzbekistan.travel/uz/i/samarqand>
3. <https://uzbekistan.travel/uz/i/xiva/>
4. <https://uzbekistan.travel/uz/i/buxoro/>